
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumani Shaxartepa MFYda yashovchi Baxodir Jo'rayevning tanqidiy murojaati e'lon qilingan edi.

Ushbu tanqidiy murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz. Fuqaro o'z murojaatida Shahartepa MFY hududida joylashgan sobiq "O'talar choyxonasi" bino-inshooti tadbirkorga sotib yuborilganligini bayon qilgan. Shahartepa MFYda joylashgan, tuman hokimligi balansida bo'lgan, umumiy maydoni 0,2454 ga (bino-inshoot egallagan maydon-185,17 kv.metr) bo'lgan bo'sh turgan bino-inshoot 2018 yil 2 noyabrda e-auksion.uz elektron savdo maydonchasida o'tkazilgan onlayn auksionda "QIRGULI SHIFO FAYZ" xususiy korxonasi tomonidan 200,0 mln. so'm investitsiya kiritish va 3 ta yangi ish o'rni yaratish majburiyati bilan 121,0 mln 1,0 so'mga sotilgan hamda hozirda investitsiya majburiyati bajarilib, mazkur bino - inshootda xususiy tibbiy xizmat ko'rsatish markazi tashkil etilgan.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-07-26 11:27:10